XALQ DEPUTATLARI OLMALIQ SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2024 - yil 17 - yanvar VI-84-3-10-147-K/24 Olmaliq shahar hokimligi

Olmaliq shahrining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27, 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrdagi 01/30-2-10352-sonli xati, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi "Toshkent viloyatining 2024-yil mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida"gi VI-85-121-10-0-K/23-sonli qaroriga asosan, Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27, 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrdagi 01/30-2-10352-sonli xati, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi "Toshkent viloyatining 2024-yil mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida"gi VI-85-121-10-0-K/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Olmaliq shahrining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risidagi masala Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy

islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasining 2024-yil 15-yanvardagi majlisida dastlabki tarzda muhokama qilinganligi, Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining 2024-yil 15-yanvarda o‘tkazilgan navbatdan tashqari 84-sessiyasida deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilinganligi va ma’qullanganligi, Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi (regulation.gov.uz) portalida (ID 92105) jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilganligi va muhokamalar jarayonida qaror loyihasi bo‘yicha fuqarolar tomonidan taklif kelib tushmaganligi inobatga olinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida” 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi "Toshkent viloyatining 2024-yil mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida"gi VI-85-121-10-0-K/23-sonli qaroriga asosan Olmaliq shahar mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari **121 285 100,0** ming.so‘m va xarajatlari **203 507 223,0** ming.so‘m prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun mahalliy byudjeti daromadlari prognozi **1-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2024-yil uchun shaharning mahalliy byudjetidan byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari **2-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun Olmaliq shahar byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari **3-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha shahar mahalliy byudjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda shahar bo‘yicha G‘aznachilik xizmati bo‘limi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

7. 2024-yil uchun Olmaliq shahar mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi **4-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2024-yil uchun viloyat byudjetidan Olmaliq shahar mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari **5-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini shahar

mahalliy byudjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. 2024-yil uchun Olmaliq shahar mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari **1 803 247,0** ming.so‘m miqdorida belgilansin.

Shahar byudjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Olmaliq shahri byudjetini ijro etishda yuqori turuvchi byudjetdan ularga ajratiladigan byudjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

10. 2024-yil uchun Olmaliq shahar byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **1 033 813,0** ming.so‘mni hamda shahar byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **6-ilova**ga muvofiq belgilansin.

11. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha shahar va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari **7-ilova**ga hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari **8-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

12. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, Qonunga muvofiq 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad

solig‘i;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) shahar mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

yer uchastkalariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) shahar byudjeti quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno).

Shu bilan birga, Qonunga muvofiq shahar mahalliy byudjetiga ajratma qilinadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 10 foizi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) 5 foizi miqdoridagi shahar byudjeti o‘rtasida taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Agar qonunchilikda mahalliy byudjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi shahar byudjetiga o‘tkaziladi.

13. O‘zbekiston Ruspublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktyabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli Qaroriga asosan 2023-yil moliya yilidan boshlab:

a) «Obod mahalla» dasturi doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida «Ochiq byudjet» axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shahrining shahar byudjetida shakllangan qo‘shimcha

mablag‘larning 30 foizi shaharda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun shahar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari uchun shahar byudjetlarining 5,0 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) «Obod mahalla» dasturini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

14. Olmaliq shahar hokimining birinchi o‘rinbosari **(Sh.Begiyev),** Iqtisodiyot va moliya bo‘limi **(D.Abduqaxorov),** shahar soliq inspeksiyasi **(I.Aliyev),** shahar hokimligi va mas’ul bo‘lim va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

15. Shahar soliq inspeksiyasi **(I.Aliyev)** O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l

qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

16. Shahar hokimi o‘rinbosarlari **(Sh.Begiyev, K.Ibragimov),** Olmaliq shahar Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo‘yicha Olmaliq shahar inspeksiyasi **(A.Aymatov)** ga noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

17. Majburiy ijro byurosi Olmaliq shahar bo‘limi **(A.Shokirov),** shahar soliq inspeksiyasi **(I.Aliyev)** bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

18. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi **(A.Nishonov, X.Komolov)** jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy

hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

19. Shahar hokimi o’rinbosari (**Sh.Abdulxayev**) Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi **(A.Saydaliyev)** bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra shaharda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini «e-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin.

20. Shahar soliq inspeksiyasi **(I.Aliyev),** shahar hokimining birinchi o‘rinbosari **(Sh.Begiyev)** shaharda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish choralarini ko‘rsin.

21. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga

yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

22. Shahar hokimligi, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi **(D.Abduqaxorov):**

shahar byudjeti jami xarajatlarining kamida 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, shahar deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

Shahar hokimligi Axborot xizmati **(D.Ro‘ziyeva)** mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

23. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari **(Sh.Begiyev)** tegishli tashkilot rahbarlari bilan birgalikda mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

24. Shahar hokimligi Axborot xizmati **(D.Ro‘ziyeva)** qonunchilikda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

25. Olmaliq shahar hokimligi Axborot xizmati **(D.Ro‘ziyeva):**

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va shahar hokimligining (www.olmaliq.uz) rasmiy web-saytiga joylashtirilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

26. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

27. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi **(S.Qodirova)** zimmasiga yuklatilsin.

Kengash Rahbari **Q.Xamdamov**

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2024-yil 17-yanvardagi
VI-84-3-10-147-K/24-son qaroriga
1-ilova

Olmaliq shahar mahaliy byudjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	Daromad turlari	Jami
JAMI		**121 285 100.0**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	37 862 200.0
2	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	2 259 800.0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	2 736 000.0
4	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	11 890 000.0
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	11 429 000.0
6	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noruda	508 000.0
7	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	527 000.0
8	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq (AZS)	2 152 000.0
9	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 386 700.0
10	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	20 092 800.0
11	Aylanmadan olinadigan soliq	4 611 600.0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	23 830 000.0

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2024-yil 17-yanvardagi
VI-84-3-10-147-K/24-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Olmaliq shahar mahalliy byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Summa
	Xarajatlar miqdori, Jami	**203 507 223,0**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**141 351 070,0**
	shu jumladan:	
1.1	**Maorif**	**19 828 757,0**
	- maktabgacha ta’lim	7 456 300,0
	- umumiy ta’lim	12 372 457,0
1.2	Sog‘liqni saqlash	113 665 524,0
1.3	Madaniyat	1 739 221,0
1.4	Sport	5 757 953,0
1.5	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	46 000,0
1.6	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	313 615,0
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**15 437 438,0**
	shu jumladan:	
2.1	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000 000
2.2	Obodonlashtirish	9 442 959,0
2.3	Veterinariya qo‘mitasi	468 080,0
2.4	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	1 526 399,0
3.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**23 686 495,0**
4.	**Zahira jamg‘armasi**	**1 804 750,0**
5.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**21 227 470,0**
5.1	*Tashabbusli byudjet tadbirlari*	*21 227 470,0*

Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining
2024-yil 17-yanvardagi
VI-84-3-10-147-K/24-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori

T/r	Shahar va shaharlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanma-dan olinadigan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq hamda Bo‘stonliq shahari bundan mustasno)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	**Olmaliq shahar**	5	5	10	20	10	30	20	100

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2024-yil 17-yanvardagi
VI-84-3-10-147-K/24-son qaroriga
4-ilova

Olmaliq shahar mahalliy byudjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
1	Olmaliq shahar	121 285 100,0	203 507 223,0

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2024-yil 17-yanvardagi
VI-84-3-10-147-K/24-son qaroriga
5-ilova

Olmaliq shahar mahalliy byudjetiga 2024-yilda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Shahar va shaharlar	Summa
1	Olmaliq shahar	82 222 123,0

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2024-yil 17-yanvardagi
VI-84-3-10-147-K/24-son qaroriga
6-ilova

Olmaliq shahar mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
1	Olmaliq shahar	1 033 813,0

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2024-yil 17-yanvardagi
VI-84-3-10-147-K/24-son qaroriga
7-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha Olmaliq shahar yer solig‘i stavkalari uchun 2024-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Shahar va shaharlar nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (so‘mda)
1	Abdulla Avloniy MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
2	Abdulla Qahhor MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
3	Abdulla Qodiriy MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
4	Abu Ali Ibn Sino MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
5	Alisher Navaiy MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
6	Axmad Yassaviy MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
7	Mahmudxo'ja Bexbudiy MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
8	Birdamlik MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
9	Bobur MFY	1,10	586,08	1,10	63 085 000
10	Bog‘aro MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
11	Bo'ston MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
12	G'ofur G'ulom MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
13	Gultepa MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
14	Do'stlik MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
15	Zarbuloq MFY	0,90	479,52	0,90	51 615 000
16	Islom Karimov MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
17	Qolmoqir MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
18	Kamalak MFY	1,10	586,08	1,10	63 085 000
19	Kimyogar MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
20	Koinot MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
21	Ko'rpasoy MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
22	Metallurg MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
23	Mirzo Ulug'bek MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000

24	Muqumiy MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
25	Muso Jalil MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
26	Mustaqillik MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
27	Navruz MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
28	Namuna MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
29	Oydin MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
30	Olmalikovul MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
31	Olmaliksoy MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
32	Oltin MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
33	Ramazon MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
34	Saxovat MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
35	Sufi Olloyor MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
36	Temur Malik MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
37	Terakli MFY	0,90	479,52	0,90	51 615 000
38	Tinchlik MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
39	Toshkent MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
40	Uvaysiy MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
41	O'zbekiston MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
42	Usmon Nosir MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
43	Furqat MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
44	Xamza MFY	1,10	586,08	1,10	63 085 000
45	Xamid Olimjon MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
46	Chambil MFY	0,90	479,52	0,90	51 615 000
47	Cho'lpon MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
48	Sharof Rashidov MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
49	Shosh-Iloq MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
50	Yulduz MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
51	Yangi hayot MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000
52	Xilol MFY	1,00	532,80	1,00	57 350 000

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2024-yil 17-yanvardagi
VI-84-3-10-147-K/24-son qaroriga
8-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Shahar va shaharlar nomi	Koeffitsient (mutloq miqdor)
1	Olmaliq shahar	1,0